T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA’LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O‘z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po‘yxatdan o‘tgan.

Jurnalda e’lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta’lim» jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi lozim.

**Tahrir hay’ati:**

*Sherzod SHERMATOV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Alisher UMAROV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Shavkat QURBONOV*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Islom ZOKIROV*
*Dono G‘ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*

**Tahririyat manzili:**

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko‘chasi,
174-uy.

O‘zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***S.T.Turg'unov***
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
9 ***A.G'.Turg'unboyeva***
O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakternig shakllanishi
13 ***M.A.Maxsudova***
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
17 ***Z.B.Kurbanova***
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
21 ***Yo.T.Djumanazarov***
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
25 ***S.Yu.Akbarov***
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
28 ***A.A.Xusanov***
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
32 ***D.D.Oribboyeva***
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
36 ***M.B.Badritdinova***
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
39 ***Z.O.Rahmatullayeva***
Bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning samarali omillari
42 ***D.H.Ergasheva***
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
46 ***D.H.Ergasheva***
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
50 ***N.O.G'aniyeva***
O'smirllik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
54 ***N.A.Vaxobova***
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
58 ***Г.Р.Мансурова***
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
64 ***Sh.J.To'ychiyeva***
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
66 ***M.Abdullayeva, N.Abdullayeva***
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
70 ***M.Abdullayeva, D.Abdullayev***
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
74 ***Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova***
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
78 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
81 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
85 ***A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva***
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
89 ***G.Tulyaganova***
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
93 ***O.R.Nabiyeva***
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
98 ***M.N.Rustamova***
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
101 ***G.Sh.Tursunova***
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
104 ***A.N.Qurbonboyev***
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
108 ***D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova***
Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari

# O‘QUVCHILAR KREATIV QOBILIYATINI O‘RGANISHNING DIAGNOSTIK VOSITALARI

***Z.B.KURBANOVA,***
*NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti v.b.*
***M.N.RUSTAMOVA,***
*Namangan viloyati Yangiqo‘rgon tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi TTST va ITJE sho‘ba mudiri*

*Maqolada shaxsning eng muhim individual-psixologik xususiyatlaridan biri kreativlikning o‘ziga xos xususiyatlarini uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida tashxis qilishning metod va metodikalari tavsifi, ulardan foydalanish tartibi, shaxsning kreativ qobiliyatini tashkil etuvchi sifatlarini rivojlantirish usullari haqida ma’lumot berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *kreativlik, qobiliyat, metodika, ijodkorlik, verbal kreativlik, noverbal kreativlik, mustaqil fikrlash, originallik, modifikatsiya, subtest, validlik, testlar.*

*Данная статья посвящена к проблемам диагностики креативности как индивидуально-психологическое свойства личности. Дается характеристика некоторых психодиагностических методик, которые широко применяются в психологической практике для изучения креативности учащихся системы непрерывного образования.*

***Ключевые слова:*** *креативность, способность, методика, творчества, вербальная креативность, невербальная креативность, самостоятельное мышления, оригинальность, модификация, субтест, валидность, тесты.*

*This article is devoted to the problems of diagnosing creativity as an individual psychological personality trait. The article provides a description of some psychodiagnostic techniques that are widely used in psychological practice to study the creativity of students in the continuous education system.*

***Key words:*** *creativity, ability, technique, creativity, verbal creativity, non-verbal creativity, independent thinking, originality, modification, subtest, validity, tests.*

Uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilar iqtidori va qobiliyatini rivojlantirish, ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, mazkur xususiyatlarni namoyon etish vaziyatini vujugda keltirish, turli yoshdagi ta’lim oluvchilarga kreativ imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni tashkil etishdan iborat.

Kreativlik ijodga bo‘lgan umumiy qobiliyatlar yig’indisi bo‘lib, kishining an’anaviy tafakkur chegarasidan chiqib g‘ayrioddiy g‘oyalarni, muammolarning noyob, betakror yechimini topishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatdir. Shaxs kreativligi boshqa aqliy jarayonlarga xos jihatlar bilan bir qatorda farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega bo‘lib, uning rivojlanishi ijtimoiy muhit, ijodiy jamoalar, ijtimoiy muhitning iqtidorli kishilarga munosabati kabi ko‘plab omillar ta’siriga bog‘liqdir. Kreativlik bu-turli hududli va chegarali, moddiy va nomoddiy yangiliklar yaratishdan iborat bo‘lib, u ijodiy faoliyat

ijodiy qobiliyatlari o‘rganiladi. 5 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan individual, 9 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan guruhiy tadqiqot tashkil etilishi, o‘yin shaklida olib borilishi va maktab amaliyotida rivojlantiruvchi mashqlar sifatida ham qo‘llanilishi mumkin.

Oltita subtestdan iborat mazkur testning birinchi subtesti “Predmetlardan foydalanish” deb nomlanadi. Bola o‘ziga tavsiya etilgan predmetlardan odatdagidan tashqari yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini sanab o‘tishi kerak. 1-3 daqiqa davomida aytilgan barcha javoblar psixolog tomonidan yozib olinadi. “Xulosa chiqarish” subtestida tekshiriluvchilarga “agar qushlar va hayvonlar insonlar tilida gapira olsa u holda nima bo‘lishi mumkin”ligini tasavvur qilish toshirig‘i beriladi. “So’zlar” subtestida 3 daqiqa davomida biror bo‘g‘indan boshlanadigan yoki tugaydigan so’zlar aytish kerak bo’ladi. “So‘zli assosiatsiyalar”, “Tasvir yasash” va “Eskizlar” deb nom olgan subtestlar ham verbal va noverbal kreativlikni o‘rganishga va ular yordamida mazkur xususiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ qobiliyat uchun maxsus testlar ishlab chiqilgan, ular yordamida shaxsning mazkur xususiyatini ifodalovchi sifatlar taraqqiyotini tashxis qilish imkoniyatiga ega bo’linadi.

Muammoni topish tezligi. Qog‘ozga oddiy ob’yekt bilan bog‘liq (masalan,daraxt) oddiy bo‘lmagan muammolarni yozish. Ba’zi savollar quyidagi shaklda qo‘yiladi: «Bu daraxt sizga berilsa, uni nima qilar edingiz?»

Fikr yuritish tezligi. Shunday so‘z aytish taklif etiladiki, unga birdan uchxususiyat tegishli bo‘lsin. Masalan, yumshoq, oq, iste’mol mahsuloti.

Assotsiatsiyalashning osonligi. Berilgan so‘z ma’nosiga teskari so‘zlarniaytish. Masalan, ”eski” yoki ”quruq” so‘zlariga.

Nutq ravonligi. Bir xil yuklama yoki qo‘shimcha bilan tugaydigan so‘zlarni o‘ylab topish.

Ob’yektlar kategoriyasini bilish qobiliyati. Ma’lum bir ta’rif barchasiga tegishli bo‘lgan so‘zlarni yozish (masalan, yumaloq).

Guruhlash qobiliyati. Sinaluvchiga so‘zlar ro‘yxati beriladi: o‘q, ari, baliqyaxta, timsoh, qirg‘iy, chumchuq. Bu so‘zlarni imkon darajasida ko‘proq sinflarga (qushlar, suzuvchilar, tirik jonzotlar, yirtqich va b. ob’yektlar) ajratib guruhlash talab qilinadi.

Xulosa chiqarish. Vaziyat ta’rifi beriladi va uning natijasini o‘ylab topishtaklif qilinadi. Masalan, ”To‘xtamasdan yomg‘ir yog‘sa nima bo‘ladi?”

Kasb ramzi. Tanish predmet tasvirlangan rasmni, masalan, elektr lampochkasi rasmini sinaluvchiga beramiz. Bu predmet qaysi kasblar uchun ramz bo‘la olishini topish kerak. (Elektrik, o‘qituvchi, olim va h.k.).

Simvollarni shakllantirish. 12 ta katakka bo‘lingan qog‘ozda «odamketyapti», «samolyot osmonga ko‘tarilyapti», «g‘azab», «faxr» jumlalari berilgan. Bu jumlalarni qalam bilan simvolik (illyustratsiya shaklida emas) ifodalash kerak.